



O'ZBEKISTON HAMDA JANUBIY KOREA DAVLATI O'RTASI XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY MADANIY YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Boirbekova Malikaxon Azizbek qizi

Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi 2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Abdurahmanov Xolboy To'xtayevich

Alfraganus universiteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini

Annotatsiya: Mamlakatimiz milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq horijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan o'zaro do'stona tashqi aloqalarni olib bormoqda. O'zbekiston va dunyo mamlakatlari o'rtasida nafaqat iqtisodiy, siyosiy balki madaniy va ilmiy sohalardaham o'zaro munosabatlar chuqurlashib o'sib bormoqda. Talabalar almashinuvlari yo'lga qo'yilmoqda, chet el Universitetlari ochilmoqda. O'zbekiston so'ngi yillarda eng ko'p madaniy va ilmiy sohalarda hususan talim sohasida AQSH,Xitoy,Turkiya hamda Janubiy Koreya davlatlari bilan keng aloqalar olib bormoqda. Maqolada O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi xorijiy tajriba almashinuvlari, milliy va madaniy sohalarda qanday ishlar amalga oshirilayotganligi,qanday strategik loyihalar tashkil etilayotgani va bu ikki davlat halqalarining amalga oshirilayotgan ishlarga qanday fikrda ekanligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlari, diplomatik aloqalar, milliy-madaniy yondashuvlar, Koreya halqaro hamkorlik agentligi, xorijiy tajriba.

Abstract: Our country conducts open, pragmatic and thoughtful friendly foreign relations that meet national interests and are aimed at expanding relations with near and far foreign countries. Relations between Uzbekistan and the countries of the world are deepening not only in the economic, political, but also in the cultural and scientific spheres. Student exchanges are being established, foreign universities are being opened. In recent years, Uzbekistan has been conducting extensive relations with the USA, China, Turkey and South Korea, especially in the cultural and scientific spheres, in the field of education. The article discusses the exchange of foreign experience between Uzbekistan and the Republic of Korea, what work is being done in the national and cultural spheres, what strategic projects are being organized, and what is the opinion of the leaders of these two countries on the work being done.

Keywords: Uzbekistan-South Korea relations, diplomatic relations, national-cultural approaches, Korean International Cooperation Agency, foreign experience.





KIRISH:

O'zbekiston va Koreya Respublikasini qadimiy do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Koreya Respublikasi 1991-yil 30- dekabrda Osiyo - Tinch okean mintaqasi davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oladi. O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida 1992-yil yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilgandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yiladi. [1]

Garchi ikki davlat o'rtasidagi masofa yaqin bo'lmasa ham, ular o'rtasidagi ilm fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini o'zaro almashish qadim va do'stona tarixga borib taqaladi. Tomonlarning global hamda mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar bo'yicha yondashuvlari o'xshash yoki yaqin. O'zbekiston ham Koreya Respublikasi ham ko'hna tarix va boy madaniyatga ega davlatlar sifatida o'zining tarixiy ma'naviy merosini saqlab kelmoqda. Oliy darajadagi ochiq, do'stona, konstruktiv muloqotlar esa mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichlarga ko'tarish imkonini bermoqda. [2]

ASOSI QISM:

Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bir necha yillar davomida respublika vazirliklari va idoralari bilan faol aloqa qilmoqda. Shu tashkilot yo'li bilan o'zbek yigit-qizlari muntazam ravishda Koreya Respublikasida malaka oshirishmoqda. Toshkent iqtisodiyot universitetida va Moliya instituti huzuridagi litseyda kompyuter sinflari tashkil etilgan. O'zbekistondagi boshqa litsey va kollejlarni o'quv asbob-uskunalarini bilan jihozlash loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta'lim markazida oliy o'quv yurtlari muallimlari va talabalari uchun tanlov asosida malaka oshirish yo'lga qo'yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O'zbekiston jahon tillari universitetida "Koreys tili markazi", Samarqand chet tillar institutida "Koreys tili va madaniyati markazi" ishlaydi. Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. O'zbek madaniyat va san'at arboblari Koreya Respublikasida o'z mahoratlarini namoyish etish, O'zbekistonda koreys madaniyati haftaliklarini o'tkazish odat tusiga aylanmoqda. 1998 va 1999-yillardagi ana shunday xaftalik doirasida Toshkentda koreys kitoblari va fotosuratlarini ko'rgazmasi, koreys san'at arboblari va rassomlari ko'rgazmasi uyushtirildi. Sport turlari va koreys an'anaviy o'yinlari namoyish etildi. Kinofilmlar ko'rsatildi, nihoyat Alisher Navoiy nomidagi teatrdan mashhur koreys ashula va raqs ansambllari katta tomosha ko'rsatishdi. [3/4]

Ikki mamlakatning siyosiy munosabatlari haqida so'z ketganda, avvalo, davlat rahbarlari o'rtasidagi samimiy do'stlikni ta'kidlash kerak. Bu do'stlik Janubiy Koreya Prezidenti Li Myon Bak Seul meri bo'lgan yillari boshlangan. 2008-yilda Li Myon Bak





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

prezident saylovida g'alaba qozonib, davlat rahbari lavozimini egallagach, inauguratsiya marosimiga oliy faxriy mehmon sifatida O'zbekiston rahbarini taklif etdi. 2009-yilning may oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari Toshkentda uchrashdilar. Davlat rahbarlarining har bir uchrashuvi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab bordi. So'nggi to'rt yil davomida esa O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi boy va sermazmun siyosiy muloqotga asoslangan holda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. [1/2]

2014 yil 1 sentabr kuni Toshkentning "Bobur" bog'i hududida Seul bog'i ochildi. Bugungi kunda Koreya madaniyat va san'at uyini barpo etish maqsadida qurilish ishlari olib borilmoqda. [1]

Har yili O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida mamlakatda "Koreya madaniyati haftaligi" o'tkaziladi. [3] Haftalik doirasida Koreya kinosi kechasi, Koreya an'anaviy amaliy san'at ustalarining mahorat darslari, badiiy va foto ko'rgazmalar, koreys qo'shiqlari va notiqlik badiiy tanlovi, Koreya moda namoyishlari bo'lib o'tadi.

Koreya Respublikasi O'zbekiston taekvondo assotsiatsiyasini sport uskunalar bilan jihozlashda, yurtimizda har ikki mamlakat sportchilari uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ko'maklashadi. O'zbekiston-Koreya munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Janubiy Koreya hukumatining 10 nafar ishbilarmon va jamoat doiralari vakillari "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Xulosa: Ayniqsa so'ngi yillarda O'zbekiston va Janubiy Korea munosabatlari juda ham chuqurlashib strategik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy tajribaning o'zbek milliy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirilishi natijasida har ikki davlat uchun samarali yechimlar shakllanmoqda. Janubiy Koreyaning ilg'or texnologiyalari, ta'lim va boshqaruvdagi zamonaviy metodlari o'zbek jamiyatida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston o'z milliy madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini saqlab qolgan holda, yangiliklarni o'ziga xos tarzda qabul qilmoqda. Bu uyg'unlik — O'zbekistonning modernizatsiya jarayonlarini milliy ruhi va madaniy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham bu ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yanada chuqurlashishi va o'zaro madaniy-tarixiy almashinuv orqali barqaror rivojlanishga erishish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston va koreya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar (*Ilyos Ismoilovich Oqbo'tayev Denov*) tadbirkorlik va pedagogika instituti magisrtanti.
2. <https://kun.uz/30440510>
3. <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-janubiy-koreya-munosabatlarida-yangi-davr-boshlanmoqda>
4. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-davlat>

